



MAHALLA HUQUQ-TARTIBOT MASKANINING BOSHQA DAVLAT ORGANLARI BILAN HAMKORLIGI: MUVOFIQLASHTIRISH MEKANIZMLARI

Xidirov Furqat Shukurullvevich

Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida dotsenti,
podpolkovni

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16627543>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Iyul 2025 yil

Ma'qullandi: 25-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 31-Iyul 2025 yil

KEY WORDS

mahalla huquq-tartibot maskani, ichki ishlar organlari, muvofiqlashtirish, jinoyatlarning oldini olish, xizmatlararo hamkorlik, jamoat xavfsizligi, elektron axborot almashinuv tizimi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslari, ularning tarkibiy tuzilmasi, vazifalari hamda boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Muvofiqlashtirishdagi amaliy shakllar, mavjud muammolar va ular asosida maskanlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, xizmatlararo o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash, elektron axborot almashinuv tizimini joriy etish, faoliyat samaradorligini baholovchi mezonlarni belgilash zarurligi asoslab berilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamiyatda xavfsiz muhitni shakllantirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash maqsadida mahallalarda "Mahalla huquq-tartibot maskanlari" tashkil etildi. Ushbu tuzilma ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida joylashgan bo'lib, bevosita joylardagi huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarining samarali faoliyat yuritishi esa, faqatgina ichki ishlar xodimlarining harakati bilan emas, balki boshqa davlat organlari bilan yaqin hamkorlikda ishlash orqali ta'minlanadi. Xususan, profilaktika inspektorlari, probatsiya xizmati, yo'l harakati xavfsizligi, sog'liqni saqlash muassasalari, ta'lim tizimi, mahalla raisi va yoshlar yetakchilari bilan hamkorlik maskanlar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, maskanlarning boshqa davlat organlari bilan uzviy va samarali muvofiqlashtirilgan faoliyat yuritishi hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

Maqolada mahalla huquq-tartibot maskanining boshqa davlat organlari bilan olib borayotgan hamkorlik faoliyati, bu jarayondagi muvofiqlashtirish mexanizmlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar tahlil qilinadi. Shuningdek, qonunchilikdagi asoslar va amaliyotdagi mavjud tajribalarga asoslanib, mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvlar yoritib beriladi.

O'zbekiston Respublikasida mahallalarda xavfsizlikni ta'minlash va jinoyatchilikning oldini olish tizimini kuchaytirish maqsadida, 2025-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish

tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan mahallalarda "Mahalla huquq-tartibot maskanlari" tashkil etildi va ushbu tizim ichki ishlar organlarining hududiy bo'g'inlarida doimiy faoliyat yurituvchi tuzilma sifatida belgilandi¹.

Maskanlarning tashkil etilishi nafaqat yangi tashkiliy tizim paydo bo'lishi, balki jinoyatlarning barvaqt oldini olishda davlat organlari faoliyatining mahalliy darajadagi muvofiqlashtirilgan modelini shakllantirdi. 2025-yil 15-fevraldagi Ichki ishlar vazirining "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi buyrug'iga ko'ra, mahalla huquq-tartibot maskanlari jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xizmat olib boradigan doimiy tarkibiy birlik sifatida faoliyat yuritadi².

Mazkur maskanlarda quyidagi xodimlar doimiy xizmat olib borishi belgilangan:

- katta va kichik profilaktika inspektorlari;
- xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor;
- yo'l harakati xavfsizligi inspektori;
- probatsiya xizmati xodimi;
- tezkor-qidiruv xizmati xodimi;
- patrul-post xizmati inspektori.

Maskanlarda, shuningdek, jamoat tartibini saqlashga ko'maklashish uchun Milliy gvardiya bo'linmalari xodimlari hamda boshqa davlat organlari vakillari va jamoatchilik tuzilmalarining vakillari ham faoliyat yuritishi belgilangan³.

Bu orqali maskanlar yagona markaz sifatida turli davlat organlari faoliyatini birlashtirib, jinoyatlarning barvaqt oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish kabi dolzarb vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida ichki ishlar organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish kabi vazifalar belgilangan⁴. Maskanlarlar ushbu funksiyalarni bevosita joylarda, ya'ni mahallaning o'zida amalga oshiradi.

Shuningdek, mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyati "Hududiy hamkorlik va kompleks yondashuv" tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni, bu maskanlar orqali ichki ishlar organlari boshqa davlat idoralari (hokimliklar, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, mahalla raislari va yoshlar ittifoqi) bilan tizimli ishlash imkoniga ega bo'lmoqda⁵.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–1-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son

² O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'i

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ–1-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.12.2024-y., 03/24/1008/0988-son

⁵ Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'Aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos

Maskanlar faoliyatining o'ziga xos jihati — mahalla miqyosida huquqiy, ijtimoiy va psixologik muhitni doimiy kuzatib borish va kerakli hollarda tezkor chora ko'rish mexanizmlarini shakllantirishdir. Shuningdek, har bir maskan o'z hududidagi kriminogen vaziyatni doimiy tahlil qilib, jinoyatlarga moyil guruhlar bilan alohida ishlash rejasini ishlab chiqadi⁶.

Umuman olganda, mahalla huquq-tartibot maskanlari bugungi kunda "xavfsiz jamiyat" barpo etishda markaziy rol o'ynab, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchli ko'prik vazifasini bajarmoqda. Ularning faoliyati nafaqat qonuniylilikni ta'minlash, balki fuqarolarning huquqiy ongi va mas'uliyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Mahalla huquq-tartibot maskani – bu faqatgina bitta xizmat emas, balki bir nechta davlat organlari xodimlari birgalikda ishlaydigan yagona xavfsizlik tizimidir. Bu yerda asosiy vazifa – mahalladagi tinchlikni saqlash, jinoyatlarning oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi birgalikda kurashishdir.

Maskanlarda ichki ishlar organlari vakillari doimiy asosda xizmat olib boradilar. Jumladan, profilaktika inspektori – mahalla hududida yashovchi fuqarolar bilan muntazam ishlaydi, jinoyatga moyil shaxslar bilan alohida suhbatlar o'tkazadi, targ'ibot va tushuntirish ishlari olib boradi⁷.

Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari esa mahallada avtohalokatlarning oldini olish, bolalar va piyodalar xavfsizligini ta'minlash, yo'l belgilarining to'g'ri ishlashini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi.

Probatsiya xizmati xodimi jinoyat sodir etib, lekin ozodlikdan mahrum etilmagan, shartli jazoga tortilgan fuqarolar bilan ishlaydi. Ularni kuzatadi, ijtimoiy reabilitatsiya bo'yicha yordam beradi⁸.

Tezkor-qidiruv xodimi – jinoyat sodir etgan yoki qidiruvda bo'lgan shaxslar haqida axborot yig'ish va ularni aniqlash ishlarini olib boradi. Patrul-post xizmati xodimi maskanlar hududida kundalik navbatchilikni olib boradi, tartibni buzganlarga nisbatan choralar ko'radi, fuqarolar xavfsizligini ta'minlaydi.

Xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor – ayollar, yolg'iz onalar, zo'ravonlikdan aziyat chekayotgan oilalarning muammolari bilan shug'ullanadi. Ular bilan tushuntirish ishlari olib boradi, kerak bo'lsa, boshqa tashkilotlar bilan birga muammoni hal qiladi.

Ichki ishlar xodimlaridan tashqari, maskanlar faoliyatida boshqa tashkilotlar vakillari ham ishtirok etadi. Jumladan, mahalla raisi mahalla aholisi bilan ishlaydi, muammolarni ichki ishlar organlariga yetkazadi va birgalikda chora ko'rishga yordam beradi. Yoshlar yetakchisi esa yoshlar bilan ishlaydi, ularni jinoyat yo'liga kirmaslikka chaqiradi, turli madaniy va sport tadbirlarini tashkil qiladi. Hokim yordamchisi oilalarning ijtimoiy holatini o'rganib, ishsizlarga yordam beradi, aholini qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi.

xususiyatlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113.

⁶ Ibragimov, Sherzod Shokirovich. "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 570-578.

⁷ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'i

⁸ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'i

Bundan tashqari, maskanlar profilaktika inspektorlari ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tashkilotlari va bandlik xizmatlari bilan hamkorlik qiladi. Masalan, maktabda davomati sust bo'lgan o'quvchilar haqida xabardor bo'lishi, ruhiy holati og'ir bemorlar bo'yicha shifokorlar bilan muloqotda bo'lishi, ishsiz fuqarolar bo'yicha bandlik markazi bilan ishlashi mumkin⁹.

Shunday qilib, maskanlar faoliyatidagi davlat organlari o'zaro yagona maqsad sari intiladi – bu esa aholining tinch va osoyishta hayot kechirishiga zamin yaratadi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarida turli davlat xizmatlari bir joyda ishlagani bilan, ularning faoliyatini bir yo'nalishga solish, ya'ni muvofiqlashtirish juda muhim. Chunki har bir xizmat o'z vazifasini bajarishi yetarli emas. Muhimi – bu xizmatlar bir-birini to'ldirishi va umumiy maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishi kerak. Bunga erishish uchun maskanlarda maxsus muvofiqlashtirish shakllari va uslublari joriy etilgan.

Eng avvalo, har bir maskanda profilaktika bo'yicha bosh inspektor mavjud. U barcha xizmatlar ishini muvofiqlashtiradi, reja tuzadi, nazorat qiladi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisob-kitob yuritadi. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'ida bu aniq ko'rsatib o'tilgan, bosh inspektor maskanlar faoliyatini boshqaradi, xizmatlar o'rtasida kelishuvni ta'minlaydi, barcha chora-tadbirlarni uyushqoqlik bilan tashkil qiladi¹⁰.

Muvofiqlashtirishning asosiy shakllaridan biri – rejali yig'ilishlardir. Har hafta yoki oyda bir marotaba barcha xizmatlar ishtirokida yig'ilish o'tkaziladi. Unda mahalladagi dolzarb muammolar, jinoyatga moyil shaxslar, ehtimoliy xavfli vaziyatlar, nogironlar, yolg'iz keksalar, muammoli oila a'zolari muhokama qilinadi. Har bir xizmat o'z ma'lumotini taqdim etadi, keyin esa birgalikdagi chora-tadbirlar belgilanadi¹¹.

Shuningdek, maskanlarda "birgalikda ishlash rejasi" ishlab chiqiladi. Ya'ni har bir xizmat yil yoki oy boshida qanday ishlarni qachon va kim bilan o'tkazishi kerakligi bo'yicha umumiy rejaga imzo chekadi. Masalan, maktab o'quvchilari o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha IIO xodimlari, xalq ta'limi vakillari va yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda reja tuzadi va amalga oshiradi¹².

Yana bir muhim jihat – bu ma'lumot almashish tizimi. Maskanlardagi barcha xizmatlar o'zlariga kelgan dolzarb ma'lumotlarni bir-biri bilan o'z vaqtida baham ko'rishlari kerak. Masalan, sog'liqni saqlash muassasasi ruhiy holati yomon yoki davolanishdan qochayotgan shaxs haqida xabar bersa, profilaktika inspektori bu bilan darhol ish olib boradi. Shuningdek,

⁹ Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'Aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'i

¹¹ Ibragimov, Sherzod Shokirovich. "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlar" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 570-578.

¹² Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'Aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113.

maktabda muammo bo'layotgan o'quvchi haqida xabar olinsa, yoshlar yetakchisi, mahalla raisi va IIO birgalikda choralar ko'radi¹³.

Muvofiqlashtirishda hisobot tizimi ham muhim o'rin tutadi. Har bir xizmat bajarilgan ishlar bo'yicha maskanlar rahbariga muntazam ravishda ma'lumot beradi. Bu orqali yutuqlar va kamchiliklar aniqlanadi, kerakli hollarda tuzatishlar kiritiladi.

Amaliyotda kuzatilganidek, maskanlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mana shu ichki muvofiqlashtirishga bog'liq. Agar xizmatlar o'zaro to'g'ri axborot almasha, umumiy maqsad sari harakat qilsa, jinoyatlarning oldini olish osonlashadi. Bunday muvofiqlik holatlari haqida ilmiy maqolalarda ham qayd etilgan. Jumladan, Norboyeva va G'aniyev tomonidan tayyorlangan tahlilga ko'ra, aynan maskanlar doirasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlari jinoyatchilik darajasini pasaytirishda sezilarli natija bergani ta'kidlangan¹⁴.

Xulosa qilib aytganda, maskanlar faoliyati yagona markaz sifatida samarali bo'lishi uchun har bir xizmatning vazifasi aniq belgilangan bo'lishi, ular o'zaro reja asosida ishlashi, axborot almashinuvi orqali hamkorlik qilishi shart. Faqatgina shunda mahalla miqyosida huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari orqali xavfsizlikni ta'minlash va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha bir qancha samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda bu tizim faoliyatida ayrim muammolar ham uchrab turibdi. Bu muammolarga e'tibor qaratilib, ularni bartaraf etish orqali maskanlar ishini yanada samarali tashkil etish mumkin.

Birinchi muammo, xizmatlar o'rtasida uzviylik har doim ham to'liq ta'minlanmaydi. Ya'ni maskanlar tarkibida ishlayotgan ayrim xodimlar faqat o'z yo'nalishi bilan shug'ullanib, boshqa xizmatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik qilmasligi holatlari uchrab turadi. Ayrim yig'ilishlar faqat qog'ozda o'tkazilgandek ko'rinadi, lekin real masalalar muhokama qilinmay qoladi. Bu esa jinoyatlarning barvaqt oldini olishda to'siq bo'ladi.

Ikkinchidan, axborot almashinuvi sustligi. Masalan, tibbiyot yoki ta'lim sohasidan kelgan muhim ma'lumotlar ayrim hollarda maskanlarga o'z vaqtida yetib bormaydi. Natijada, jinoyatga moyil guruhlar, muammoli o'quvchilar yoki ruhiy sog'lig'i yomon fuqarolar bilan o'z vaqtida ishlash imkoni bo'lmaydi.

Uchinchidan, maskanlar faoliyatining baholash tizimi zaifligi. Bugungi kunda maskanlar faoliyati qanchalik samarali bo'layotgani haqida aniq mezonlar ishlab chiqilmagan. Bu esa yutuqlar va kamchiliklarni aniq ko'rsatib berishga to'sqinlik qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda ham bu holat alohida tilga olinib, maskanlar faoliyatini baholovchi indikatorlar ishlab chiqilishi zarurligi ta'kidlangan¹⁵.

¹³ Xudoyqulov Dostonjon Dilshod O'G'Li, and G'Aniyev Farrux Taxirjanovich. "Profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati insitutlari bilano'zaro hamkorligi faoliyatini takomillashtirish va xorijiy davlatlarning tajribalari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 64-69

¹⁴ Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'Aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113. doi:10.5281/zenodo.14609412

¹⁵ Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'Aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113. doi:10.5281/zenodo.14609412

Shuningdek, ayrim hududlarda maskanlar xodimlari soni kam bo'lib, mavjud xodimlar bir necha funksiyani bajarishga majbur bo'lmoqda. Bu esa ularning sifatli xizmat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammolar shuni ko'rsatadiki, maskanlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun faqat tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, ishlash sharoitlari, tashkiliy madaniyat va hamkorlik tartibi kabi masalalarga ham chuqur e'tibor qaratish lozim.

Demak, maskanlar samaradorligini oshirish uchun mavjud muammolarni tizimli ravishda hal qilish va hamkorlikni raqamli texnologiyalar orqali kuchaytirish zarurdir. Faqat shunda bu maskanlar o'z oldiga qo'yilgan asosiy maqsad – mahalla xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish vazifasini to'laqonli bajara oladi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatida aniqlangan muammolar shuni ko'rsatadiki, ushbu tizimni yanada samarali qilish uchun aniq va amaliy takliflarni ishlab chiqish zarur. Quyida maskanlarda xizmat qiluvchi turli davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Birinchidan, har bir xizmat vakiliga aniq vakolat va mas'uliyatlarni belgilash zarur. Maskanlarda ishlovchi xizmatlar o'rtasidagi vazifalar aniq ajratilishi, ular qog'ozda emas, amalda ham bajarilishi zarur. IIVning tegishli buyrug'ida bu xizmatlarning maskanlardagi roli belgilangan, ammo uni joylarda to'liq bajarish uchun amaliy ko'rsatmalar ham bo'lishi kerak¹⁶.

Ikkinchidan, muvofiqlashtirishni yagona elektron platforma orqali yuritish. Maskanlar faoliyatini raqamlashtirish zarur. Har bir xizmat qiluvchi xodim o'z faoliyati va ma'lumotlarini yagona elektron tizimga kiritib borsa, bu nafaqat shaffoflikni ta'minlaydi, balki tezkor axborot almashinuvini ham osonlashtiradi. Bu borada Prezident qarorida ham raqamli yondashuvga alohida e'tibor qaratilgan¹⁷.

Uchinchidan, mahalla huquq-tartibot maskanlarining faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish taklif qilinadi. Maskanlarning samaradorligi hozircha faqat umumiy mulohazalar asosida baholanmoqda. Endilikda har bir maskanlar faoliyatini o'lchovli ko'rsatkichlar (jinoyatlarning kamayishi, profilaktik suhbatlar soni, aholi ishonchi darajasi) orqali baholash tizimi yaratilishi zarur.

To'rtinchidan, hududdagi ijtimoiy muammolarni erta aniqlash bo'yicha monitoring guruhi tuzish taklif qilinadi. Maskanlar qoshida maxsus "ijtimoiy xavf guruhlari" bilan ishlovchi monitoring guruhini shakllantirish mumkin. Bu guruhga profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, tibbiyot xodimi va mahalla raisi kiritilib, ular muammoli oilalar, jinoyatga moyil shaxslar va ruhiy nosog'lom fuqarolarni aniqlab, ularga tezkor yordam ko'rsatishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, "Mahalla huquq-tartibot maskanlari" fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Bu tizimning samarali ishlashi, ayniqsa, maskanlar tarkibidagi xizmatlar – ichki ishlar organlari xodimlari, sog'liqni saqlash, ta'lim, mahalla raisi va boshqalar o'rtasidagi muvofiqlik va hamkorlikka bevosita bog'liq.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'i

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son

Amaliyotda bu xizmatlar o'rtasidagi hamkorlik ba'zan yetarli darajada emasligi kabi muammolar mavjud. Shu sababli maskanlar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun xizmatlararo hamkorlikni kuchaytirish, elektron axborot almashinuv tizimini joriy etish, faoliyat samaradorligini baholovchi mezonlar ishlab chiqish va xodimlarning ish sharoitlarini yaxshilash zarur.

Samarali muvofiqlashtirish – maskanlar orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy kalit hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i;
4. Xudoyqulov Dostonjon Dilshod o'g'li, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati insitutlari bilano'zaro hamkorligi faoliyatini takomillashtirish va xorijiy davlatlarning tajribalari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 64-69.
5. Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113.
6. Ibragimov, Sherzod Shokirovich. "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 570-578.